

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Axborot texnologiyalari"
kafedrası o'qituvchisi T.Rajabovning Denov tumanidagi
26-maktabning "Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash"
nomli mahorat dars mashg'ulotini o'tkazish №23-sonli yig'ilish
bayonnomasidan ko'chirma**

28.03.2025 y

Denov t.

Ishtirok etuvchilar:

1. 26-maktab direktori va maktab o'qituvchilari
2. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Axborot texnologiyalari"
kafedrası o'qituvchisi T.Rajabov
3. 26-maktab 11-sinf o'quvchilari.

Tadbir mashg'uloti kun tartibi:

1. **Dars mavzusi:** Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash.
Ma'ruzachi: "Axborot texnologiyalari" kafedrası o'qituvchisi Rajabov
To'raqul Jo'raqulovich
2. **Ma'ruza mavzusi:** Mahorat darsi "Ta'lim jarayonida axborot
texnologiyalarini qo'llash"
3. Axborot texnologiyalari o'qituvchisi T.Rajabov 11-sinflar bilan
suhbatlar o'tkazildi.
4. **Taqdimotga yakun yasash, savol-javoblar va xulosalar**

Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi T.Rajabov dars
mashg'ulotida "Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash" nomli
mavzuga oid o'quvchilarga AT nima, AT tushunchalari haqida tushuntirdi.

Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning asosi hisoblangan, kompetentli
yondoshuvga asoslangan o'quvchilar hamda, o'qitishning zamonaviy usul va
vositalarini amaliyotga joriy etish, uzluksiz ta'lim bo'yicha davlat ta'lim
standartlari va o'quv dasturlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligini
ta'minlash, bu jarayonga keng pedagogik jamoatchilik va mutaxassislarni jalb
qilgan holda O'zbekiston Respublikasida yangi ta'lim to'g'risidagi qonun
loyihasi ishlab chiqildi. Bu loyiha keng jamoatchilikka muhokama qilish uchun
taqdim etildi.

Bundan tashqari o'qituvchilikka qobiliyati bor, pedagoglik kasbini tanlash
istagini bildirgan o'quvchilar bilan alohida suhbat o'tkazildi. Maktab
ma'muriyatiga ushbu o'quvchilardan pedagog sinflarini tashkil etish bo'yicha

taklif kiritildi. O'quv mashg'ulotlarida innovatsion metodlar, axborot
kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish zarurligi yuzasidan fikr-
mulohazalar bildirildi.

Qaror qilindi.

1. T.Rajabovning "Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini
qo'llash" mavzusidagi mahorat darsi namunali deb baholansin.

Mahorat darsi o'tuvchi:



T.Rajabov

Oltinsoy tumanidagi

26-maktab direktori:



SH.Bo'riyev